

МАКТАВ CHIZMACHILIK DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'QUV DOSKASIDAN FOYDALANISH METODIKASI

M.K.Xalimov - Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
O.E.Qo'ziyev – Samarqand viloyati Narpay tumani 33-IDUM maktab o'qituvchisi,
O.O.Esonova - Nizomiy nomidagi TDPU TS-302 guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktab chizmachilik dars samaradorligini oshirishda o'quv doskasidan foydalanish metodikasi bo'yicha metodik tavsiyalar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны методические рекомендации по методике использования доски для повышения эффективности школьного урока рисования.

Resume

This article describes methodological recommendations on the method of using the board to improve the effectiveness of a school drawing lesson.

Kalit so'zlari: ta'lif, bilim, ko'nikma, malaka, samaradorlik, qobiliyat, ong, savodxonlik, elektron doska.

Ключевые слова: образование, знания, умение, компетентность, эффективность, умение, сознательность, грамотность, электронная доска.

Key words: education, knowledge, skill, competence, efficiency, skill, awareness, literacy, electronic board.

Ma'lumki, turmush va texnikada yaratilayotgan har qanday yangilikning avval chizmasi bajariladi. Ushbu chizma asosida yangilikning afzalligi, kamchiligi aniqlanadi. Shuningdek, buyum o'zining chizmalari orqali yig'iladi, uning elementlari detallarga ajratiladi yoki ta'mirlanadi. Buyumning chizmasi orqali uni tassavur qilishda uning yaqqol tasviri eng qulay hisoblanadi. Buni esa o'quvchi o'quv plakatlari, dinamik modellar, video proyektor, turli elektron hamda o'quv doskasi orqali tushunishi ta'biiydir. Chizmachilik fanini o'qitish davrida, samaradorlikni oshirish jarayonida o'quv doskasidan foydalanish metodikasi yangi talablar asosida ilg'or pedagogik texnologiyalar assosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishi olib borilishi zarurdir. Jumladan, chizmachilik fanini o'qitish jarayonida turli uslublar qo'llaniladi. Odatta, chizmachilik darslarida o'tilgan dars qaytariladi, yangisi tushuntiriladi va o'zlashtirish sifati tekshiriladi. Yangi materialni o'qituvchi og'zaki tushuntiradi, ko'rgazmali o'quv quollarini namoyish etadi va doskada grafik ishlar bajaradi.

O‘rganilayotgan materialni o‘quvchi tez, oson va yaxshi o‘zlashtirilishini ta‘minlash uchun o‘qituvchining doskadagi ishiga bir qancha talablar qo‘yiladi. Doskadagi chizma aniq va sinfxonaning turli joyidan yaxshi ko‘rinishi (o‘qilishi) kerak. Buning uchun chizmalarni yetarlicha katta, chiziqlarni esa aniq chizish kerak. Doskada grafik ish bajarish jarayonida belgilangan Davlat standarti qoidalariga bo‘ysiniladi (masalan, chiziq turlari, o‘lcham qo‘yish qoidalari, qirqim va kesimlar bajarish va b.). O‘qituvchining doskadagi ishi ko‘p vaqt ni olmasligi kerak, chunki darsning asosiy maqsadi o‘quvchilarning grafik ishidir. Yuqoridagi talablar o‘quv doskasida bajariladigan barcha grafik amallarga ta‘luqlidir. U yoki bu tasvirning bajarilish xarakteri chizmaning maqsadi va dars jarayonida tutgan o‘rniga boqliq. Ma‘lumki, chizmachilikni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar grafik ishlar bajaradilar. O‘quvchilar chizmachilik o‘quv anjomlaridan foydalanishning to‘g‘ri usullarini mukammal egalashlari kerakki - busiz chizmani tez va osonlik bilan chizib bo‘lmaydi. O‘qituvchining doska da ishslash usullarini bevosita ko‘rsatishi maqsadga muvofiq. Bunday grafik ish o‘qituvchidan chizmachilik asboblarini alohida e’tibor bilan ishlatish qonun-qoidalariaga rioya qilishni talab etadi. Namoyish vaqtida o‘qituvchining qo‘llari aniq, benuqson harakat qilishi lozim. O‘qituvchi chizmani chandalashga yo‘l qo‘ymasdan barcha ishni chizma asboblari bilan aniq bajarilishga harakat qilishi kerak. O‘qituvchi ushbu usullarni o‘zlashtirib, doskada mustaqil va to‘g‘ri ishlay oladigan bo‘lganidan so‘ng chizma asboblaridan foydalanishni namoyish etish zaruriyati o‘z-o‘zidan yo‘qoladi. Keyinchalik chizma chizish jarayonini tezlashtirish uchun o‘qituvchi qonun-qoidalardan chetga chiqib, qo‘lda ishlashi mumkin. Masalan, parallel va perpendikulyar chiziqlarni chandalab, faqat chizg‘ich yordamida chiza beradi. Yangi mavzu tushuntirilayotganda, doskadagi yangi chizmalarni (masalan: tutashmalar, qirqim va kesimlar v/k.) aniq, chizmachilik asboblari bilan ishslash qonun-qoidalariaga to‘liq rioya qilgan holda bajarishi talab etiladi. O‘tilgan mavzuni (masalan: sirlarning proeksiyalarini) soddarroq usul bilan chizaverish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, o‘qituvchi doskada ishslash jarayonida o‘quv dasturi materiali, darsning maqsadi va o‘quvchilarning doskada ishslash amallarini hisobga olgan holda ijodiy yondashuvi kerak. Mustaqil daftarda bajarish uchun beriladigan vazifalarning aksariyati odatda doskaga chizib beriladi. Bunday ishga o‘qituvchi iloji boricha kam vaqt sarflagani ma‘qul, chunki doskada chizg‘ich va sirkul yordamida tez, aniq chizma bajarish uzoq tajriba va mahorat talab etadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda uy vazifasiga tayyor chizma zarur bo‘ladi. Shu bilan birga o‘quvchi daftarda bajariladigan uy ishlarini doskadan eskiz yoki texnik rasm shaklida chizib olib, uyda chizish qonun-qoidalari asosida bajaradilar.

O‘qituvchi doskaga chiziladigan chizmalarni tanlashda quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- chizmalar rejadagi mavzularga asoslanganligi, aniq chizilganligi;

- doskadagi chizmalar sinfxonaning hamma joyidan birday yaxshi ko‘rinishliligi;
- doskada ishlash vaqtida o‘qituvchini kuzata olishini hisobga olishi;
- ikkinchi darajali chizmalar bilan doskani band etmaslik;
- chizmalarning mehnat talabliligi;
- chizmalarni chizish uchun ajratilgan vaqt mutanosib bo‘lishi kerak v/k.

Darsga tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchi chizmalarning doskada joylashuvi hamda kattaligini oldindan chandalab qo‘yadi. Chizmalarning joylashuvi, ularning iloji boricha doskada katta chizilishi ta‘minlashi kerak. Shu bilan birga chizma bilan doska chekkasi orasida etarlicha joy qoldiriladi. O‘quv doskasidagi har qanday grafik ishlarga estetik talablar qo‘yiladi. Birinchi navbatda bularga – chiziq va yozuvlarning aniqligi, chizmalarning kompozitsion joylashuvi, chiziq turlari aniq ifodalanishi kerak. Ingichka chiziqlar uzoqdan aniq, ko‘rinarli bo‘lishi, asosiy tutash chiziqning qalinligi (yo‘g‘onligi) ingichka chiziqqa nisbatan farqliligi shular jumlasidadir. Odatda, chizma ingichka chiziqlarda chiziladi, so‘ngra chiziqlar bostirib chizib yo‘g‘onlashtiriladi (1-rasm).

1-rasm.


Yaxshi tayyorlangan chizmachilik o‘quv xonasi fanni o‘qitish sifatini oshirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o‘quv xonasida chizma doskasi ham o‘zgacha anjomlanadi. Doskaning yon tomonida bor bilan ishlash uchun asboblar bo‘lishi kerak. Doskaga bor hamda doska artgich-latta qo‘ydigan taglik yoki quticha qotiriladi. Fanni o‘qitish metodikasi bo‘yicha adabiyotlarda o‘quv doskasini anjomlash variantlari yoritilgan, chizmalar bajarish tezligi va sifati chizma asboblarining ishga tayyorligi bilan uzviy bog‘liqdir. Bunda, chizg‘ich, to‘g‘ri burchakli va teng tomonli uchburchak chizig‘ich, sirkul, transportir hamda lekalo qo‘llaniladi.

Chizmalarni bajarish uchun tutqichli chizg‘ich ayniqsa qulay. Katta lekalolarni o‘qituvchining o‘zi ko‘p qavatli karton yoki boshqa materialdan kichik lekalolarga o‘hshatib mustaqil yasaydi.

Doskani artish uchun nam porolon (gupka) bo‘lagi qulay bo‘lib, qo‘lni ifloslamaslik uchun porolon (gupka) bo‘lagini mahsus yasalgan tunuka qutychaga

o‘rnatish mumkin. Bo‘r bilan ham porolon (gupka) alohida qo‘yilsa, bo‘r namlanmaydi. Nam bo‘r ishslashga yaroqsiz holatga keladi.

O‘quv doskasida ishslash uchun bo‘r to‘rtburchak shaklida tayyorlanadi. Yo‘g‘on chiziqlarni bo‘rning qaliligidan yoki kerak qalillikda yo‘nalgan tomonidan foydalaniladi (2-rasm).



2-rasm.

Ingichka chiziqlarni chizish uchun bo‘rning tabiiy uchidan yoki maxsus yo‘nilgan konussimon uchidan foydalaniladi (3-rasm).



3-rasm.

Sirkulga qo‘yiladigan bo‘r bo‘lagi bir tomonidan konussimon (ingichka chiziqlar uchun), ikkinchi tomoni (yo‘g‘on chiziq chizish uchun) esa lopatasimon qilib yo‘niladi (4-rasm).



4-rasm.

O‘quv doskasining vazifalari:

1. Ilmiy axborotlarni grafik usul bilan ko‘rgazmali qilib bayon qilish;
2. Doskadagi bajarilgan grafik axborotlarni daftarga ko‘chirish ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish;
3. O‘quvchilarni saranjom-sarishtalikka o‘rgatish;
4. Chizmalarni to‘g‘ri bajarish va shriftlarni standart talabiga mos ravishda ko‘chirishni o‘rgatish;
5. Parallel va perpendikulyar chiziqlar o‘tkazish usullarini o‘rgatish;
6. O‘quvchi va talabalar bilan chizma bajarish sinxronligini ta‘minlash;
7. Doskada chizma asboblari yordamisiz chizmalar bajarish texnikasini o‘rgatish;
8. O‘quv doskasida muktabda 1-3 chizma bajarilsa, kasb-hunar maktablarida 1-6 chizma bajariladi, oily ta‘lim tizimida 1-10 tagacha chizmalar bajarilishi mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib muktab chizmachilik darslarida o‘quvchilarning fanni o‘zlashtirishi, o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishini yaxshilash bevosita o‘quv doskasidan foydalanishga bog’liqligini ko‘rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. E.Ro'ziyev, A.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. T. Yangi asr avlodi. 2010.
2. М.Эргашов, Ш.М.Адашбоев. StarBoard интерактив доскадан фойдаланишга оид услубий кўрсатмалар. Низомий номидаги ТДПУ ризографи. Т. 2010.
3. M.Xalimov, Chizma geometriya va muhandislik grafikasi. T., Voris, 2013.